O'zbekiston Respublikasida agrar sohani modernizatsiya qilish bo'yicha qabul qilingan strategiyalar va islohotlar doirasida raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. 2022-yilda "Agrosanoat sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish konsepsiyasi" qabul qilinib, qishloq xo'jaligi jarayonlarini avtomatlashtirish, fermalarning raqamli hisob-kitoblarini yuritish, agrotexnika xizmatlarining elektronlashtirilishini bosqichma-bosqich amalga oshirish ko'zda tutilgan. [1]

Shunga qaramay, amaliyotda bu texnologiyalarning joriy etilishi va qo'llanilishi turli mintaqalarda turlicha kechmoqda. Ba'zi hududlarda ilg'or agrotexnologiyalar allaqachon foydalanuvchilarga sezilarli foyda keltirayotgan bo'lsa, ayrim hududlarda texnik infratuzilmaning yetishmasligi yoki malakali kadrlar tanqisligi sababli raqamli yondashuvlar to'liq qo'llanilmayapti. Shu boisdan, ushbu tadqiqotda raqamli texnologiyalarning agrar loyihalardagi roli, ularning samaradorlikka ta'siri hamda joriy etishdagi mavjud to'siqlar va istiqbollari ilmiy tahlil qilinadi.

So'nggi yillarda dunyo bo'yicha agrar sohada raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Raqamli texnologiyalar qishloq xo'jaligi jarayonlarini soddalashtirish, unumdorlikni oshirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash imkonini bermoqda. O'zbekiston ham bu tendensiyadan chetda qolmay, agrar sohada raqamli islohotlarni bosqichma-bosqich joriy etmoqda.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – raqamli texnologiyalar ta'sirida agrar loyihalarning samaradorligini oshirishga doir amaliy tajribalarni o'rganish va mavjud imkoniyatlarni ilmiy tahlil qilishdir.

Adabiyotlar sharhi.

Agrar sohada raqamli texnologiyalarning joriy etilishi haqida so'nggi yillarda qator ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar texnologik yangiliklarning samaradorlikka bevosita va bilvosita ta'siri, hosildorlikni oshirishdagi roli hamda ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi orqali erishilgan natijalarni o'rganishga yo'naltirilgan.

Xudoyberganov Q. va Yuldashev D. (2023) O'zbekistonda raqamli agrotexnologiyalarni joriy etishning huquqiy asoslari va amaliy ko'rinishlarini tahlil qiladi. Ularning fikricha, GIS texnologiyalar, agrodron, va mobil ilovalar orqali agrotexnik chora-tadbirlarni soddalashtirish fermerlar uchun katta yengillik yaratmoqda. Shu bilan birga, texnologik vositalarning yuqori narxi ularning keng joriy etilishiga to'sqinlik qilayotgan omil sifatida qayd etilgan. [2]

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-8

Jahon banki (2022) Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston misolida aqlli dehqonchilik texnologiyalarining samaradorligini ko'rsatadi. Unda dronlar, avtomatik sug'orish tizimlari va AI (sun'iy intellekt) asosida yer monitoringi kabi texnologiyalar qo'llangan loyihalarning hosildorlikni 20–30% ga oshirgani qayd etilgan. Jahon banki ekspertlari texnologiyalarni mahalliy sharoitga moslashtirish muhimligini ta'kidlaydi. [3]

FAO (2021) Raqamli qishloq xo'jaligi texnologiyalarining global rivojlanishi va ularning samaradorligiga oid tajribalarni tahlil qiladi. Ular ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda mobil ilovalar orqali fermerlarga ob-havo, bozor narxleri va agrotexnik maslahatlar yetkazilayotgani, bu esa ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlayotganini ta'kidlaydi. [4]

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi hisobotlari (2023–2024) Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda agrar sektorning 18% dan ortiq xo'jaliklarida raqamli texnologiyalar joriy etilgan. 2024-yil boshida bu ko'rsatkich 25% ga yetgan. Hisobotlarda texnologiyalarning foydalanuvchi qulayligi, ularning samaradorlikka ta'siri va davlat tomonidan ko'rsatilgan moliyaviy yordam hajmlari ko'rsatib o'tilgan. [5]

Karimov B. (2021) Raqamli platformalar orqali fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligi ortayotganini, shuningdek, ularga ko'maklashuvchi agrostartaplar sonining ortib borayotganini tahlil qiladi. Muallif masalaning inson resurslari jihatiga ham urg'u beradi — ya'ni yangi texnologiyalarni boshqara oladigan mutaxassislar yetishmovchiligi jiddiy muammo sifatida ko'rsatilgan. [6]

Metodlar

Ushbu tadqiqotda tahliliy yondashuv – mahalliy va xorijiy agrar loyihalar misolida raqamli texnologiyalarni qo'llash tajribalari o'rganild, empirik kuzatuv – dronlar, IoT sensorlari, GIS texnologiyalarining real xo'jaliklardagi tatbiqi va natijalari kuzatildi. Solishtirma tahlil – raqamli texnologiyalar qo'llanilgan va qo'llanilmagan loyihalarning samaradorligi solishtirildi, statistik tahlil – ishlab chiqarish xarajatlari, hosildorlik va foyda ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot davomida O'zbekiston agrar sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish holati, ularning samaradorlikka ta'siri va mavjud muammolar chuqur tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalarni tatbiq etgan xo'jaliklarda ishlab chiqarish jarayonlari yanada samaraliroq bo'lib, resurslardan tejamkor foydalanish, mehnat xarajatlarini qisqartirish va hosildorlikni oshirish imkoniyatlari ortgan.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-8

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023–2024-yillar davomida raqamli texnologiyalar joriy etilgan fermer xo'jaliklarida:

- Hosildorlik o'rtacha 20–25% ga oshgan;
- Sug'orish suvidan foydalanish 15–18% ga kamaygan;
- Ishlab chiqarish xarajatlari 12–16% ga qisqargan;
- Bozor talabiga mos rejalashtirish orqali mahsulot narxining barqarorligi ta'minlangan.

Raqamli agroilovalar, GPS texnologiyalari va agrodronel'ar orqali dalalarda aniq monitoring o'tkazilishi, o'g'itlash va ekin parvarishini optimallashtirish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, sun'iy yo'ldosh kuzatuvlari yordamida yer unumdorligi, tuproq namligi va zararkunandalar tarqalishini tahlil qilish imkoniyati fermerlarga vaqtida va to'g'ri qaror qabul qilishda yordam bermoqda.

Biroq tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, bu texnologiyalar hali keng ommalashmagan. Bunga sabablar orasida:

- Texnik infratuzilmaning barcha hududlarda mavjud emasligi;
- Raqamli texnologiyalar bo'yicha yetarli bilimga ega kadrlar tanqisligi;
- Uskuna va dasturiy ta'minotlarning yuqori xarajatli bo'lishi;
- Fermerlar orasida raqamli savodxonlikning past darajada bo'lishi kabilar kiradi.

Shu bilan birga, xalqaro tajribalar (Niderlandiya, AQSh, Hindiston) asosida olib borilgan qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, agrar sohada raqamli texnologiyalarni joriy etish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlangan hollarda ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi yanada yuqori bo'ladi. Masalan, Hindistonda "e-Agriculture" dasturi orqali millionlab fermerlar elektron xizmatlar va maslahat markazlaridan foydalanmoqda. Niderlandiya raqamli agroklasteralar orqali butun qishloq xo'jaligi tizimi sun'iy intellekt asosida boshqariladi. AQShda aqlli texnika va sun'iy yo'ldosh monitoringi asosida dehqonchilik yuritiladi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish agrar loyihalarning nafaqat iqtisodiy, balki ekologik samaradorligini ham oshiradi.

Raqamli texnologiyalar agrar loyihalarda samaradorlikni oshirishning muhim vositasidir. Biroq ularning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun kompleks yondashuv, imtiyozli texnologik kreditlar, kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash zarur.

Xulosa va takliflar

Raqamli texnologiyalar agrar loyihalarning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular orqali qishloq xo'jaligi jarayonlari avtomatlashtirilib, inson resurslaridan samarali foydalanish ta'minlanadi. Statistika va amaliy tajriba

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-8

asosida shuni aytish mumkinki, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali agrar sektorning raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Yuqoridagi tahlillar va empirik natijalar asosida raqamli texnologiyalar agrar loyihalarning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanini ko'rish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar yordamida agrar ishlab chiqarishning deyarli barcha bosqichlari – rejalashtirish, parvarishlash, monitoring, tahlil, yig'im-terim va yetkazib berish – avtomatlashtirilmoqda. Bu esa iqtisodiy samaradorlik, vaqt tejalishi, resurslarning oqilona ishlatilishi va ekologik barqarorlikka olib kelmoqda.

Biroq raqamli texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etish uchun zarur bo'lgan infratuzilma, moliyaviy resurslar va malakali kadrlar masalasi hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, kichik va o'rta fermer xo'jaliklarida bu texnologiyalarni tatbiq etish darajasi pastligicha qolmoqda. Fermerlarning raqamli savodxonligi, internetga ulanish imkoniyati va texnik vositalarga bo'lgan imkoniyatlar chegaralangan.

Xalqaro tajriba asosida ham aniqlanishicha, raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etgan davlatlar ularni faqat texnik vosita sifatida emas, balki butun agrar ekotizimni boshqaruvchi omil sifatida ko'rib chiqmoqda. Bu esa siyosiy iroda, strategik rejalashtirish, ilmiy yondashuv va investitsion muhit bilan chambarchas bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni – “Agrosanoat sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish konsepsiyasi”, 2022-yil.
2. Q.Xudoyberganov, D.Yuldashev. “Agrosanoatda innovatsion texnologiyalar”. – Toshkent, 2023.
3. FAO Report – “Digital Agriculture: Global Perspectives”, 2021.
4. Jahon banki – “Smart Farming Technologies and Efficiency in Central Asia”, 2022.
5. Raqamli texnologiyalar vazirligi statistik hisobotlari, 2023–2024.
6. Karimov B. “Agrotexnologiyalarni joriy etishda raqamli yechimlar” 2021 y.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-8
INSULTDAN KEYINGI REABILITATSIYADA FIZIOTERAPEVTIK
REABILITATSIYA SAMARADORLIGI**

Saodatxon Ro'ziyeva Toxirjon qizi

Turon sanatoriyasi- vrach nevropatolog

saodatxomidova1998@gmail.com

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani Shukur Burhonov ko'chasi 7 uy

+998914884633

Ilmiy rahbar: Yulduz Musayeva Alpisovna

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti-Nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrası
professori d.m.n.

yulduz76m@gmail.com

+998 94 368 25 62

Tadqiqot maqsadi

Insultdan keyingi bemorlarda harakat faoliyati, mushak tonusi va neyropsixologik funksiyalarni tiklashda fizioterapevtik reabilitatsiya usullarining (elektroterapiya, massaj, terapevtik jismoniy mashqlar va refleksoterapiya) samaradorligini baholash hamda ularning kompleks qo'llanilishi orqali bemorlarning funksional mustaqilligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot materiali va usullari

Tadqiqot 2023–2025-yillar davomida insultdan keyingi 40 nafar bemor (erkaklar — 22 nafar, ayollar — 18 nafar, o'rtacha yosh — 56 ± 8 yil) o'rtasida olib borildi. Bemorlar insultning turi va og'irlik darajasiga ko'ra guruhlariga ajratildi. Tadqiqotda ishtirok etganlarning barchasi reabilitatsiya markazida davolanish bosqichida kuzatildi. Fizioterapevtik reabilitatsiya dasturiga quyidagilar kiritildi: elektroforez, magnitoterapiya, terapevtik massaj, passiv va faol jismoniy mashqlar, refleksoterapiya hamda psixologik qo'llab-quvvatlash mashg'ulotlari. Har bir bemorga individual reabilitatsiya rejasi ishlab chiqildi. Natijalarni baholash uchun Fugl-Meyer Assessment (FMA), Barthel indeksi, va Modified Rankin Scale (mRS) kabi xalqaro reyting tizimlari asosida dastlabki va yakuniy holatlar solishtirildi. **Natijalar**

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-8**

Tadqiqot natijalariga ko'ra, fizioterapevtik reabilitatsiya usullarining kompleks qo'llanilishi bemorlarning funksional holatini sezilarli darajada yaxshilaganligi aniqlandi. Dastlabki bosqichda bemorlarning 70 %ida mushak tonusi pasaygan, 65 %ida esa qo'l va oyoq harakatlarida cheklanish kuzatilgan. Reabilitatsiya kursining yakunida bu ko'rsatkichlar mos ravishda 28 % va 30 % gacha kamaydi. Fugl-Meyer baholash shkalasi bo'yicha o'rtacha ball 34 ± 6 dan 61 ± 7 gacha oshdi, bu esa harakat faoliyatining tiklanishini ko'rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, fizioterapevtik reabilitatsiya usullari insultdan keyingi bemorlarda harakat faoliyatini, mushak tonusini va psixo-emotsional holatini tiklashda muhim ahamiyatga ega. Elektroterapiya, massaj, refleksoterapiya va terapevtik jismoniy mashqlarni kompleks qo'llash bemorlarning funksional mustaqilligini oshirib, ularning kundalik hayotga moslashuv jarayonini tezlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'Sullivan, S. B., Schmitz, T. J., & Fulk, G. D. (2020). *Physical Rehabilitation*. 7th ed. F.A. Davis Company, Philadelphia.
2. Langhorne, P., Bernhardt, J., & Kwakkel, G. (2021). Stroke rehabilitation. *The Lancet*, 397(10274), 507–517.
3. Winstein, C. J., et al. (2019). Guidelines for Adult Stroke Rehabilitation and Recovery. *Stroke*, 50(12), e344–e418.
4. Kaur, G., & Sharma, R. (2022). Effectiveness of physiotherapy interventions in post-stroke rehabilitation: A systematic review. *Journal of Neurological Sciences*, 434, 120–128.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-8
ҚАРАҚАЛПАҚСТАНДАҒЫ СОВЕТЛЕР ДИНИЙ СИЯСАТЫ**

Аминов Раҳматжон Искандар ўғли
Бердақ атындағы ҚМУ стажёр оқытушысы

Ғәрезсизликке ерисиў менен бирге, елимиз тарийхының жаңа бетлери ашылды, өткен әсирлер даўамында халқымыз басынан өткерген сынақлы дәўирлерге тереңнен нәзер салыў имканияты жаратылды. Әсиресе, совет хўкимети дәўиринде жүргизилген сиясаттың ақыбетлери, жәмийеттиң барлық тараўларына, соның ишинде руўхый-мәдений өмирине тийгизген тәсири терең үйрениўди талап етеди. Бул ретте, дин мәселеси айрықша әҳмийетке ийе болып, совет хўкиметиниң диний сиясатының қарақалпақ жәмийетиндеги көринислери ғәрезсизлик жылларындағы баспасөзде жаңаша баянын тапты.

Социализм дәўиринде динге қарсы алып барылған гүрес, диний исенимлерге шеклеўлер қойылыўы, диний орынлардың жабылыўы хәм диний ғайраткерлерге жасалған репрессиялар – булардың бәршеси халқымыздың руўхый дүньясына унамсыз тәсир етти. Совет хўкиметиниң диний сиясатын үйренген М. Раметуллаев “бүгинги күнде дин тараўындағы мәселелерди билиў хәм түсиниў ушын, әйне совет дәўириндеги жағдайды үйрениў арқалы ғана ерисиўге болады”[6] - деп пикир билдирген болса, Қарақалпақстандағы дәўирли баспасөз тарийхын үйренген илимпаз С. Нуржановтың пикиринше, “Совет хўкиметиниң динге қарсы гүреси динниң жәмийетте идеология хәм адамлардың күнделикли турмысы менен ой-пикирин қәлиплестиретуғын нормалар жыйнағы сыпатындағы хызметине қарсы бағдарланған еди. Дәўирлик баспасөздеги динге қарсы әмелият мазмуны бойынша бул гүрестин жәмийетлик сананы ийелеў, бирден-бир идеологияны орнатыў хәм усы тийкарда пүткиллей жаңа адам типі – “homo sovietus”ты тәрбиялаў ушын әмелге асырылғанлығын көрсетеди”[5]. Ғәрезсизлик жылларында қарақалпақ баспасөзлери бул мәселелерди ашық-айдын көтерип, совет дәўириндеги диний сиясатқа сын көзқарас пенен баға бериўге умтылды.

Бул мақалада ғәрезсизликтен кейинги дәўирлик баспасөзде Қарақалпақстанда совет хўкиметиниң диний сиясатының баянланыўы анализленеди. Совет дәўириндеги диний сиясаттың қарақалпақ жәмийетиндеги руўхый-мәдений өмирине тәсири, оның бүгинги күндеги ақыбетлери хәм ғәрезсизлик жылларындағы баспасөз материалларында өз сәўлелениўи көрип шығылады. Мақаланың тийкарғы мақсети – қарақалпақ баспасөзлериниң диний

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-8

темаларды жарытыўдағы өзгешеликлерин анықлаў, совет дәўириндеги диний сиясатқа байланыслы жарыяланған материалларды талқылаўдағы сын көзқарасларды көрсетиў хәм диний бағдардағы ағартыўшылық жумысларға берилген әҳмийетти баҳалаўдан ибарат.

Ғәрезсизлик дәўириндеги қарақалпақ баспасөзинде Совет хуқиметинин диний сиясатының баянланыўы анализ етилген мақалалардың нәтийжелери, қарақалпақ халқының диний дүньяқарасының қәлиплесиўине Совет дәўиринде жүргизилген диний сиясаттың тәсири терең хәм көп қырлы болғанлығын көрсетеди. Баспасөзде жәрияланған материаллар, Совет хуқиметинин динге қарсы жүргизген сиясатының қарақалпақ жәмийетинде диний институтлардың әҳмийетин төменлетиўге, диний билимлендириўди шеклеўге хәм диний үрип-әдетлерди жоқ етиўге қаратылғанын дәлиллейди.

Соның менен бирге, ғәрезсизлик жылларындағы баспасөз бетлеринде Совет дәўириндеги диний сиясаттың ақыбетлерине баҳа бериўде түрли көзқараслардың бар екенлиги де анықланды. Айрым мақалаларда диний сиясаттың халықтың руўхый дүньясына келтирген зияны сынға алынса, енди бир мақалаларда Совет дәўириндеги диний ағартыўшылықтың прогрессив ролы атап өтиледди.

Талқылаў процессинде, ғәрезсизлик дәўириндеги қарақалпақ баспасөзинде Совет хуқиметинин диний сиясатының баянланыўы, тарийхый әдилликти тиклеўге, өткен әўладлардың руўхый мийрасын үйрениўге хәм диний толерантлық идеяларын тарқатыўға қаратылғанлығы анықланды. Бул болса, өз гезегинде, жәмийетте саўатлылықты арттырыўға хызмет етеди.

XX әсирдин 80-жылларының екнши ярымында жәмийетлик турмыста ашықлық хәм демократияның жәрияланыўы менен өтмиштиң әҳмийетин түсиниўге қызығыўшылық артты. “Еркин Қарақалпақстан” газетасының 1991-жылы №242 санында Турсынбай Әбдимуратовтың мақаласы жәрияланды хәм онда сталинлик репрессиядан басқа елге қашып кеткен Нурсейит ахун урпақларының кейинги тәдири сүүретленеди: “Қарақалпақстанлы урыс хәм мийнет ветераны Сәдирнияз Музаппаров сол дәўирде газетада басылған сүүретлерди көрип, тири ғайып болған ағалары ҳаққындағы мақаланы оқыйды. Мақала “Совет Қарақалпақстаны” газетасында 1991-жылы 4-июнь күни жәрияланған Есназар Усеновтың “Бир уўыс топырақ” атлы мақаласы еди. Кейиннен, 9-августта Айтмурат Бердиевтиң “Сириядан келген бир хаттың изи...” деген анықлама мақаласы шығады. Еки мақала да жәмийетшиликте үлкен қозғаў салып, көп адамлар белгисиз жоқ болып кеткен ағайинлерин излеўге баслады.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-8

Сәдирнияз Музаппаров мақалалардағы алжасықларды дүзетип, Нурсейит ахунның балалары хаққында анықлық киргизеди. Ол ағалары Яхия хәм Бекбосынның куўдаланыўға ушырап, 1934-1935 жыллары елден қашып кеткенин айтады. Олар Түркменстан, Иран, Ирак арқалы Түркияға жетип барады, кейиннен Сирияға көшип өтип, сол жерде жасап дүньядан өтеди. Сәдирнияздың туўысқаны Қайпан Шәрипов оларды Сирияда еки мәртебе көрип келген. Ағаларының балалары хәм әўладлары Сирияда жасап атыр. Сәдирнияз бул жағдайды репрессияның кесапаты деп баҳалайды”[3].

Тарихшы Оңғарбай Юсупов “Архив гэзийнелеринен” атлы мақаласында “1926-жылы Шымбайдың №7 аўылынан Пираж хожа Меккеге сапар етип, 1929-жылы аўылына қайтып келди. Бирақ, дәл сол ўақытлары ОГПУ Кегейли хәм Шымбайда контрреволюциялық шөлкемлерди излеп, гуманлы адамларды, диний адамларды және бай балаларын қамап атырған еди. Пираж хожаның хажы сапары хаққындағы гүрриңлери тыңшылардың итибарын аўдарды. Ақыбетинде, Ескелдиев Пираж хожа (лақабы Иранхожа) айыплы деп табылып, 1929-жылы 7-декабрьде үшликтиң қарары менен атыўға хүким етилди хәм мал-мүлки конфискацияланды. Меккеден келгеннен соң, ол жазаланды”-деп жазды[2].

Оңғарбай Юсуповтың және бир мақаласында 1919-1930-жыллары Тахтакөпир, Кегейли хәм Шымбай районларында ОГПУ тәрәпинен репрессияға ушыраған шахслар хаққында мағлыўмат берилген. Репрессияға ушырағанлар арасында диний хызметкерлер (ийшанлар, ахунлар), байлар, болыслар хәм контрреволюциялық хәрекетлерге қатнасы бар адамлар дизими берилген. Олар контрреволюцияға қатнасқаны, большевиклерге қарсы үгит-нәсият жүргизгенлиги, Жунайджанды мақтағаны ушын айыпланған. Репрессия түрлерине атыў, жер аўдарыў, мал-мүлк хатлаў хәм шаңарақ ағзаларын көшириў киреди. Дизимде репрессияға ушырағанлардың аты-жөнлери, туўылған жерлери, жаслары хәм айыплаў дәлиллери келтирилген. Дизимдеги 96 адамнан 62 си диний адам екенлиги анықланды. Бул диний уламалар: Ийшанлар, ахунлар, мешитли моллалар хәм олардың суўпылары еди. Айрым жағдайларда судланғанлардың шаңарақ ағзалары да репрессияға ушыраған.

Районлық газеталарда да бул темада мақалалар жәрияланды. Мәселен, “Шымбай хаўазы” газетасының 1996-жылы 19-декабрьдеги санында журналист Мияссар Қабулованың “Қазы Мәўлик-әдил қазы болған” атамасында мақала жәрияланды[4]. Бул мақала публицистикалық болса да, Қазы Мәўликтің диний адам сыпатында совет дәўириндеги диний сиясаттың ақыбетлерин шеккенин хәм Сталин жазалаў жылларында ағаларының жақын жәрдеми менен куўдалаўдан қашып, қоңсылас Түркменстанға барып жасырынып, жанын сақлап қалғанын

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-8

сүүретлейди. Р.Шамсутдинов хэм У.Бекмухаммадтың “Қипчоқлик қатағон даври жабрдийдалари” мақаласы, 2015-жылы Әмиўдәрья районының "Таррақиёт кўзгуси" газетасында (№32-33 (7220)) басылып шықты[7]. Бул мақалада райондағы репрессия қурбанлары ҳаққында мағлыўматлар келтирилген. Атап айтқанда, диний хызметкерлерден ийшанлар, ахунлар, суўпылар, қазылар, райислер, муптилер хэм моллалардың атлары тилге алынған.

Әлбетте, ҳуқық қорғаў уйымларының жәмийетлик-ҳуқықый басылымларында репрессияға ушырағанлар хэм олардың атларының ақланыўына арналған материаллар басылып шықты. Буған байланыслы Ш.Бабашевтың репрессия қурбанлары болған диний ғайраткерлер ҳаққындағы бир неше мақалаларын тилге алыў керек[1]. Атап айтқанда, совет дәўиринде тийкарсыз айыпланған қазылар ҳаққындағы мақалалары айрықша итибарға ылайықлы.

Бул репрессиялардың себеплери Совет ҳүкметиниң динге қарсы сиясаты хэм байларды, болысларды хэм Совет ҳүкметине қарсы шыққанларды жоқ етиўге қаратылған қәдеми еди.

Жуўмақлап айтқанда, Ғәрезсизлик дәўириндеги қарақалпақ баспасөзлери совет ҳүкметиниң диний сиясатын жарықландырыўда үлкен әҳмийетке ийе болды. Олар совет дәўиринде динге қарсы алып барылған репрессиялық сиясаттың ақыбетлерин ашып көрсетти, диний инанымлардың қәдирин қәлпине келтириўге хызмет етти хэм руўхый жаңаланыў процесине өз үлесин қосты.

Пайдаланылған әдебиятлар:

1. Бабашев Ш. Жазықсыз жазаланған қазылар / Жипек жолы. – Нөкис, 3.12.2005. - №51. – Б. 8.
2. Еркин Қарақалпақстан 13. 03. 1992. №49. S 2
3. Еркин Қарақалпақстан 19. 12. 1991. №242. 3(2)
4. Қабулова М. Қазы Мәўлик-әдил қазы болған. “Шымбай ҳаўазы”, 19.12.1996. №51. 3-бет.
5. Нуржанов С. К вопросу антирелигиозной пропаганды на страницах печати Каракалпакстана 1930-х годов // Интернаука, №42(359). Часть 1. Москва, 2024. 19-23 б. Эл.версия. <https://www.internauka.org/journal/science/internauka/359>
6. Раматуллаев М.А. - Совет ҳәкимиятының Қарақалпақстандағы диний сиясатының изертлениўи// Вестник ККО АН РУз, №2, 2021. С.102-105.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-8**

7. Шамсутдинов Р., Бекмухаммад У. Қипчоқлик қатағон даври жабрдийдалари, Таррақиёт кўзгуси газетаси №32-33 (7220), 29.08. 2015. – 2 б.



**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-8
TA'LIM MAZMUNI VA UNING ASOSIY KOMPONETLARI**

N.B.Gafurova

Toshkent shahar, Uchtepa tumani 193 - ixtisoslashtirilgan davlat umumtalim maktabi
direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'limda ta'lim mazmuni va tizimdagi innovatsion texnologiyalar va o'qitish mazmunidagi o'quv material hamda davlat ta'lim standartidagi yangiliklar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim mazmuni, kasbiy kompetensiyalar, pedagogik prognostika, fan-texnika taraqqiyoti, o'quv elementi, o'quv material, didaktik bilim, ko'nikma va malaka.

Аннотация: В статье рассматриваются инновационные технологии в содержании и системе образования в системе общего среднего образования, учебно-методические материалы в содержании образования, инновации в государственных образовательных стандартах.

Ключевые слова: Содержание образования, профессиональные компетенции, педагогическое прогнозирование, научно-техническое развитие, образовательный элемент, учебный материал, дидактические знания, умения и навыки, квалификация.

Abstract: The article examines innovative technologies in the content and system of education in the general secondary education system, teaching and methodological materials in the content of education, innovations in state educational standards.

Keywords: Educational content, professional competencies, pedagogical forecasting, scientific and technological development, educational element, educational material, didactic knowledge, skills and abilities, qualifications.

Ta'lim mazmuni - fanning hozirgi holatiga mos keladigan bilimlar, ko'nikmalar yig'indisi bo'lib, o'quv jarayoniga jalb qilingan shaxslarning bilim, ko'nikma, malakasiga aylanishi uchun fanlarning umumiy asoslariga pedagogik jihatdan qayta ishlangan holda kiritiladi. Jamiyatimizdagi o'zgarishlar sharoitida pedagogika bir vaqtning o'zida butun jamiyat manfaatlariga javob beradigan va shu bilan birga har bir shaxsning qobiliyat va iste'dodini jadal rivojlantirishga qaratilgan ta'lim mazmunini shakllantiradi. Ta'lim mazmuni fanga mos keladigan dastur uchun foydali bo'lgan davlat ta'lim standarti hujjatlarida mustahkamlanadi. "Ta'lim mazmuni" – ta'lim jarayonining o'quvchini rivojlantirish va tarbiyalash maqsadida ma'lumot

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-8

mazmunidan tanlanib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma, malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlardir. Ta'lim mazmuni o'quv tarbiya jarayoniga o'quv material, o'quv elementi, o'quv topshirig'i, o'quv savollari, o'quv ko'rsatmalari shaklida olib kiriladi.

Ta'lim mazmuni quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

O'quv material-ma'lumot mazmunini moddiylashtirishning eng oxirgi darajasi sanaladi. U ta'lim boshlanguncha turli normativ loyihalar-o'quv dasturi, o'quv darsligi, tarkibida tayyor holda bo'ladi.

O'quv elementi-o'quv material tarkiban o'quv elementlaridan iborat. O'quv elementi-o'quv materialining didaktik ishlov berilgan eng kichik birligidir.

O'quv savoli-javobi ta'lim mazmunida berilgan so'roq o'quv savolidir. O'quv topshiriqlari-topshiriqlar moddiy va ma'naviy boyliklarni anglash, boyitish vositasi sanaladi.

Bizning fikrimizcha, ta'lim mazmuni bilim, ko'nikma, malakani shakllantiruvchi pedagogik jarayonlarda to'plangan va umumlashtirilgan, muvaffaqiyatli tatbiq etilgan ijtimoiy tajribalarni o'z ichiga qamrab oladi. Ta'lim mazmuni jamiyatning umumehtiyotlaridan kelib chiqib, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy, madaniy, diniy va fan texnika sohalaridagi rivojlanish an'analarini o'zida aks ettiruvchi ma'lumotlar yig'inididir. Ta'lim mazmuni jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlariga mutanosib ravishda takomillashtirilib, yangilanib boriladi.

Ta'kidlash kerakki, umumiy o'rta ta'limda ta'lim mazmunining asosiy vazifasi bitiruvchining jamiyatga yuqori ijtimoiylashuv ko'nikmalari bilan dadil kirib borishini ta'minlashdan iboratdir. Ta'lim mazmunini loyihalashda avvalombor bitiruvchining shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiy foydali faoliyat ko'rsatishi, oila, mahalla, jamoa va jamoat joylarida o'z manfaati va o'z g'alar manfati balansini saqlagan holda, jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishini, jamoada ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishini inobatga olinishi lozim. Ta'lim mazmuni bitiruvchi o'zining hayoti davomida iqtisodiy faoliyat ko'rsatishi, o'zining ehtiyoji uchun zarur bo'lgan daromadga ega bo'lishi, kambag'allik darajasiga tushmaydigan miqdorda daromad olishga yetarli bilim, ko'nikma va malaka, kompetensiyalarni egallashiga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim. Umumiy o'rta ta'lim mazmuni ta'lim natijalariga yo'naltirilgan holda o'quvchilar ongiga singdiriladi va bitiruvchining jamiyatning uyushgan bo'g'inlari - oila, mahallada, uyushmagan bo'g'inlari - jamoat joylarida, iqtisodiyotning muayyan tarmoqlarida, biznes va tadbirkorlikda egallagan bilimlarini manipulyatsiya qilish orqali ijtimoiy va iqtisodiy dividend olishi, pirovard natijada jamiyatda munosib o'rin topishi ko'zda tutilgan.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-8

Xorijiy tahlillarimiz natijasida mamlakatimizda amaldagi umumiy o'rta ta'limning maqsadi bitiruvchi egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui bilan belgilangan. Lekin bugungi kunda, bunday yondashuv yetarli emas, chunki umumiy o'rta ta'lim tizimi muassasasining bitiruvchisi o'zining keyingi hayot faoliyatiga tayyor bo'lishi, duch keladigan hayotiy va kasbiy muammolarni amalda hal qila oladigan darajada tayyor bo'lishi lozim. Demak olingan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish bilan birga muayyan qo'shimcha fazilatlarga ham ega bo'lish kabi dolzarb muammolarni kompetensiyaviy yondashuv asosida bartaraf etiladi. Ta'lim tizimida kompetentlikka asoslangan yondashuvni joriy etish jarayonida ta'lim mazmuni, uning metodologiyasi va tegishli o'quv muhiti yangilanadi. Zamonaviy ta'lim maqsadlarini tushunishda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalaridan foydalaniladi.

Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv tushunchasi "bilimlarni o'zlashtirish" (aslida axborot yig'ish) tushunchasidan farq qilib, o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy hayotning kelajakdagi vaziyatlarida samarali harakat qilish imkonini beruvchi ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kompetentlikka asoslangan yondashuv bilimga yo'naltirilgan komponent bilan tenglashtirilmaydi, ya'ni kompetensiyalar hayotiy muammolarni hal qilishni, ijtimoiy rollarni bajarishni, muammoli vaziyatlarda harakat qilish imkonini beruvchi ko'nikmalarga alohida ahamiyat berish natijasida vaziyatlarni hal qilish va kerakli natijalarga erishish jarayonida topilishi kerak bo'lgan holatlarga qaratiladi. Umumiy o'rta ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish masalasi ta'limning muhim tarkibiy komponentlari bilim, ko'nikma, malakalar hamda shaxsiy sifatlarning integrallashuvini ta'minlovchi o'zak qismi sifatida talqin etish lozim. Chunki kompetensiyaviy yondashuv – bu natijaga, samaraga qaratilgan ta'lim sifatini belgilovchi bugungi zamonaviy ta'lim texnologiyalarining asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" F-60-son Farmoni.
2. Сафарова Р.Ф. Педагогика // Энциклопедия (2 жилд). – Тошкент, 2015. – 377 б.
3. Слостёнин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. "Педагогика" /Под ред Слостёнина В.А. – М.: Академия, 2022. – 576 с.
4. Алексеев, Н. А. Личностно-ориентированное обучение в школе Текст. / Н. А. Алексеев. Ростов н/Д. : Феникс, 2006. — 332 с.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV
TAMOYILLARI

Sh.Sh.Fozilov

“Ta’lim sohasida ovqatlantirishni tashkil etish va nazorat qilish markazi” davlat muassasasi, inson resurslarini rivojlantirish bo‘yicha bosh mutaxassisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarishda rahbar qarorlarini shakllantirish, boshqaruv jarayoni tizimlilik, izchillik va maqsadlilik asosida tashkil etishning tamoyillari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, boshqaruv tamoyillari, boshqaruv, menejment, pedagogik monitoring, moddiy baza, kadrlar siyosati innovatsiya, ta’lim sifati.

Аннотация. В статье рассматриваются принципы формирования управленческих решений в управлении дошкольными образовательными организациями, организация процесса управления на основе системности, последовательности и целенаправленности.

Ключевые слова: дошкольное образование, принципы управления, администрирование, менеджмент, педагогический мониторинг, материально-техническая база, кадровая политика, инновации, качество образования.

Abstract. This article examines the principles of forming management decisions in the management of preschool educational institutions, organizing the management process based on systematicity, consistency, and purposefulness.

Key words: preschool education, management principles, administration, management, pedagogical monitoring, material and technical base, personnel policy, innovation, quality of education.

Davlatimiz rahbari tomonidan bu sohada tub islohotlarni amalga oshirish va zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimini barpo etish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi. “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi F-60-son Farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirildi.

Boshqaruv – bu tashkilot faoliyatini maqsadga yo‘naltirilgan holda muvofiqlashtirish, rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil etish jarayonidir. Maktabgacha

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-8**

ta'lim tashkilotini boshqarish deganda esa bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatni uyg'un holda tashkil etish tushuniladi. Maktabgacha ta'lim tizimida samarali boshqaruvni tashkil etish uchun rahbar faoliyati zamonaviy menejment tamoyillariga asoslanishi zarur. Boshqaruv tamoyillari — bu tashkilot faoliyatini yo'naltiruvchi, rahbar qarorlarini shakllantiruvchi asosiy me'yorlardir. Ular orqali boshqaruv jarayoni tizimlilik, izchillik va maqsadlilik xususiyatiga ega bo'ladi. Zamonaviy menejment nazariyalariga tayangan holda quyidagi tamoyillar asosiy o'rinni egallaydi:

Ilmiylik tamoyili-Ilmiylik tamoyili boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ilmiy asoslangan tahlil, ishonchli ma'lumotlar va tajriba natijalariga tayangan holda harakat qilishni nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari pedagogik jarayonni boshqarishda ilmiy asoslangan usullar, diagnostika, tahlil va prognozlash mexanizmlaridan foydalanishi lozim. Masalan, bolalarning rivojlanish dinamikasini baholashda ilmiy asosli kuzatish, test va monitoring metodlaridan foydalanish boshqaruv qarorlarining aniq va maqsadga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Ilmiylik tamoyili boshqaruv jarayonida subyektiv qarorlar emas, balki ishonchli faktlar va statistik ma'lumotlarga tayangan yondashuvni talab qiladi.

Tizimlilik tamoyili- Tizimlilik tamoyili boshqaruv faoliyatining barcha yo'nalishlari o'zaro uzviy bog'liqlikda amalga oshirilishini bildiradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti — bu yagona pedagogik tizim bo'lib, unda maqsad, mazmun, usullar, shakllar va natijalar o'zaro chambarchas bog'liq. Rahbar faoliyatida tizimlilik quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-ta'lim-tarbiya jarayoni, moddiy baza, kadrlar siyosati va ota-onalar bilan hamkorlikni yagona tizim sifatida boshqarish;

-har bir bo'lim faoliyatining umumiy natijaga xizmat qilishi;

-rejalashtirish, nazorat va tahlil jarayonlarining uzviy bog'liqligini ta'minlash.

Shunday qilib, tizimlilik tamoyili rahbarga tashkilot faoliyatining barcha qismlarini bir butun mexanizm sifatida ko'rish va ularni o'zaro uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Ochiqlik va shaffoflik tamoyili-Mazkur tamoyil boshqaruv faoliyatining barcha bosqichlarida ochiqlik, halollik va hisobdorlikni talab etadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari jamoa, ota-onalar va yuqori tashkilotlar oldida o'z faoliyatining natijalari bo'yicha muntazam axborot berib borishi lozim.

Ochiqlik tamoyili quyidagi holatlarda o'z ifodasini topadi:

-qaror qabul qilishda jamoa a'zolari ishtirokini ta'minlash;

-pedagogik kengashlarda muhim masalalarni muhokama qilish;

-ta'lim jarayonidagi yangiliklarni ochiq tarzda jamoaga yetkazish;

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-8

-resurslardan foydalanishda shaffoflikni ta'minlash. Bu tamoyil jamoada ishonch muhitini yaratadi, xodimlarning tashabbuskorligini kuchaytiradi va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikni mustahkamlaydi.

Insonparvarlik va hamkorlik tamoyili-Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda insonparvarlik tamoyili markaziy o'rinni egallaydi. Uning asosida bola shaxsini hurmat qilish, uning tabiiy ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini e'tiborga olish tamoyili yotadi. Rahbar o'z jamoasini ham insoniy qadriyatlarga asoslangan tarzda boshqarishi zarur. Pedagog va tarbiyachilar o'zlarini hurmat qilinayotganini his etgan muhitda ijodiy ishlaydi, bu esa ta'lim sifati oshishiga olib keladi. Hamkorlik tamoyili esa jamoaviy boshqaruvni, o'zaro yordam, tajriba almashish va bir-birini qo'llab-quvvatlashni bildiradi. Ota-onalar, pedagoglar va rahbariyat o'rtasidagi hamkorlik bolalar tarbiyasida yaxlit pedagogik muhitni yaratadi

Innovatsionlik tamoyili-Bugungi globallashtirish davrida ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Innovatsionlik tamoyili rahbardan yangilikka ochiqlik, ijodiy yondashuv va o'zgarishlarga moslashuvchanlikni talab qiladi.

Bu tamoyil quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish;
- raqamli boshqaruv tizimlarini joriy qilish;
- o'qituvchilar va tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga jalb etish;
- yangi g'oyalarni sinovdan o'tkazish va samarali natijalarni ommalashtirish.

Maktabgacha ta'lim tizimi — bu jamiyatning intellektual, ma'naviy va iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim bosqichlardan biridir. Boshqaruv jarayonining muvaffaqiyati, avvalo, rahbarning kasbiy kompetensiyalari, liderlik fazilatlarini, jamoani birlashtira olish qobiliyati hamda innovatsion yondashuvlarga tayyorligiga bog'liq. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda rahbar zamonaviy menejment tamoyillariga — ilmiylik, tizimlilik, ochiqlik, insonparvarlik va innovatsionlikka tayanishi lozim.

Jamoaviy boshqaruv yondashuvi hozirgi davrda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir pedagogni qaror qabul qilish jarayoniga jalb etish, ularning fikrini inobatga olish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash ta'lim sifati va jamoaning motivatsiyasini oshiradi. Shu tariqa rahbar va jamoa o'rtasida o'zaro ishonch, mas'uliyat va hamkorlik muhitini yaratish orqali tashkilotning umumiy samaradorligiga erishiladi. Zamonaviy boshqaruv jarayonida innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish, pedagogik monitoringni yo'lga qo'yish, ota-onalar bilan samarali hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, rahbarlarning menejment va liderlik

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-8**

bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish — ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishning muhim omillaridir.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini samarali boshqarish — bu nafaqat tashkiliy yoki ma'muriy jarayon, balki insonparvarlik, hamkorlik va innovatsion fikrlashga asoslangan tizimli faoliyatdir. Ana shu yondashuvgina ta'lim jarayonining barqaror rivojlanishi va bolalar shaxsining har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” F-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-4312-son qarori.
3. Abdullayeva M., To'raqulova D. Maktabgacha ta'lim menejmenti. – Toshkent: Fan, 2021.
4. Xodjayeva N. Ta'lim tashkilotlarini boshqarish asoslari. – Toshkent, 2020.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
VOLUME-2, ISSUE-8
YOSHLAR ORASIDA INTERNETDAN HADDAN TASHQARI
FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI**

Sharopov Nabi Mirzaali o'g'li

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti doktoranti

E-pochta: nabisharopov@gmail.com

Tel: +998942643694

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar orasida internetdan haddan tashqari foydalanish natijasida yuzaga keladigan psixologik oqibatlar tahlil qilinadi. Internet qaramligining shaxsning emotsional holati, kognitiv jarayonlari va ijtimoiy moslashuviga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqotda yosh davriga xos psixologik xususiyatlar, raqamli muhitning shaxsga ta'siri hamda internetdan foydalanuvchi yoshlarning psixologik barqarorligini saqlash yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Internet qaramligi, yoshlar psixologiyasi, emotsional beqarorlik, ijtimoiy izolyatsiya, virtual muloqot, kognitiv buzilishlar, raqamli madaniyat.

Kirish. Bugungi kunda internet global kommunikatsiya vositasi sifatida inson hayotining barcha jabhalariga kirib bordi. Xususan, yoshlar uchun internet o'qish, muloqot qilish, o'yin o'ynash va o'zini rivojlantirishning asosiy manbalaridan biriga aylandi. Shunga qaramay, internetdan haddan tashqari foydalanish ko'plab psixologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Internet qaramligi tushunchasi birinchi bor K. Young (1998) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u "insonning internetdan foydalanishga nisbatan tormozlanmagan, nazoratsiz ehtiyoji" sifatida talqin etiladi. Bunday holatda shaxs internetdan uzoqlashganda bezovtalik, asabiylashish va depressiv holatlar namoyon bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida ham yoshlar orasida internetdan foydalanish darajasi keskin oshgan. So'nggi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 16–25 yosh oralig'idagi yoshlarning qariyb 70 foizi kuniga 5 soatdan ortiq vaqtini onlayn muhitda o'tkazadi (Sobirova, 2023). Bu esa shaxsning psixik barqarorligi, o'qish motivatsiyasi va real muloqotga bo'lgan ehtiyojini susaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, yoshlar orasida internetdan haddan tashqari foydalanishning psixologik oqibatlarini aniqlash, tahlil qilish va oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi zamonaviy psixologiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Nazariy asoslar. Internet qaramligi shaxsda mustaqil ravishda shakllanmaydi — u asosan yosh davrining psixologik o'ziga xosliklari bilan chambarchas bog'liqdir.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-8

Yoshlar davri (o'smirlilik va ilk yetuklik yoshi) o'zini anglash, identifikatsiya va mustaqillikka intilish bilan xarakterlanadi. Internet esa bu ehtiyojlarni tez va oson qondirish vositasiga aylanadi.

K. Young (2017), Caplan (2010) va Orzhekhovskaya (2019) tadqiqotlarida internet qaramligi quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

Internetdan uzoqlashganda kuchli psixologik noqulaylik;

Virtual muloqotni real muloqotdan afzal ko'rish;

Diqqatning beqarorligi va vaqtni boshqarishdagi qiyinchiliklar;

Real hayotdagi majburiyatlardan qochish istagi.

Shuningdek, kompensator motiv — ya'ni shaxsning real hayotdagi muvaffaqiyatsizliklarni internetdagi faoliyat orqali qoplashga urinishi — internet qaramligining asosiy psixologik mexanizmlaridan biridir.

Asosiy qism

Kognitiv oqibatlar- Internetdan ortiqcha foydalanish miyada axborotni qayta ishlash jarayonlariga ta'sir etadi. Ko'p hollarda "informatsion charchash" kuzatiladi: e'tibor tarqoqlashadi, xotira zaiflashadi, fikrlash jarayoni fragmentar shaklga aylanadi. Tadqiqotlar (Karimova, 2021) shuni ko'rsatadiki, doimiy onlayn faoliyat yoshlarning o'qishdagi diqqatni jamlash qobiliyatini pasaytiradi.

Emotsional oqibatlar- Internet qaramligiga chalingan yoshlar orasida tashvishlilik, asabiylik, depressiv kayfiyat va hissiy labillik darajasi yuqori bo'ladi. Shaxs virtual muvaffaqiyatlar orqali o'zini vaqtincha ijobiy holatda his qiladi, ammo bu holat tez o'tkinchi bo'ladi. Real hayotdagi muvaffaqiyatsizliklar esa chuqur hissiy inqirozga olib keladi.

Ijtimoiy oqibatlar- Internet yoshlar o'rtasidagi real muloqot zaruratini qisqartiradi. Virtual muloqot ijtimoiy ko'nikmalarni susaytiradi, empatiya va boshqalarni tushunish darajasini kamaytiradi. Yoshlar o'zini "onlayn doira" orqali namoyon etishga intiladi, bu esa ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytiradi.

A. Andreyeva (2020) fikriga ko'ra, ortiqcha onlayn muloqot "ijtimoiy maska"ni shakllantiradi — ya'ni shaxs virtual obrazini ideal ko'rsatib, real o'zligini yashiradi.

Shaxsiy xususiyatlar- Internet qaramligiga moyil yoshlar odatda quyidagi psixologik xususiyatlarga ega:

O'zini past baholash;

Yuqori tashvishlilik;

Ijtimoiy qo'rquv (real muloqotdan qochish);

Ichki bo'shliq hissi;

Motivatsion beqarorlik.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-8

Biroq, ijobiy psixologik resurslarga ega yoshlar (optimistik, maqsadli, o'zini boshqara oluvchi shaxslar) internetdan me'yorida, maqsadli foydalanadi. Bu shaxslar raqamli muhitni o'z rivoji uchun vosita sifatida ishlata oladilar.

Amaliy tavsiyalar

Raqamli gigiyena qoidalarini joriy etish — internetda o'tkaziladigan vaqtni cheklash, onlayn faoliyatni maqsadli rejalashtirish.

O'zini boshqarish va vaqtni to'g'ri taqsimlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Psixologik treninglar orqali yoshlarning emotsional intellektini rivojlantirish.

Oilaviy va ta'lim muassasalarida sog'lom internet madaniyatini targ'ib qilish.

Offline faoliyatlarni (sport, ijod, madaniy tadbirlar) ko'paytirish orqali real hayotdagi ijtimoiy tajribani kengaytirish.

Xulosa. Internet yoshlarning intellektual va ijtimoiy rivojida muhim vosita bo'lishi bilan birga, me'yoridan ortiq foydalanish ularning psixologik barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Haddan tashqari onlayn faoliyat diqqat, xotira, motivatsiya va emotsional muvozanatning buzilishiga olib keladi. Shu sababli yoshlarni raqamli muhitda ongli, maqsadli va me'yorli faoliyat yuritishga o'rgatish, raqamli madaniyatni shakllantirish bugungi psixologik-pedagogik amaliyotning dolzarb vazifasidir.

Internet tobeligi belgilarini erta aniqlash va psixologik yordam ko'rsatish tizimini yaratish zarur. Oliy o'quv yurtlari va maktablarda psixologlar tomonidan individual va guruhiy konsultatsiyalar, stressni boshqarish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazilishi foydali. Bu yoshlarning emotsional barqarorligini oshirib, internetdan sog'lom foydalanish madaniyatini shakllantiradi.

Internet tobeligi bilan kurashish faqat yoshlarning o'ziga emas, balki ularning atrofidagi kattalarga ham bog'liq. Shu bois ota-onalar va pedagoglar uchun ma'lumotnoma, seminar va treninglar o'tkazish muhim. Ular farzandlarining onlayn faoliyatini nazorat qilish, psixologik holatini kuzatish va zaruratda yordam so'rash ko'nikmalarini o'zlashtirishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Young, K. (2017). *Internet Addiction: Diagnosis and Treatment*. Academic Press.
2. Caplan, S. (2010). *Theory and Measurement of Generalized Problematic Internet Use. Computers in Human Behavior*, 26(5).
3. Karimova, V. M. (2021). *Zamonaviy yoshlar psixologiyasi*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
4. Sobirova, N. (2023). "Yoshlar orasida internetdan haddan tashqari foydalanishning oqibatlari." *Psixologiya fanlari jurnali*, №2.
5. Andreyeva, G. M. (2020). *Sotsialnaya psixologiya lichnosti*. Moskva: MGU nashriyoti.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

«FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI» NOMLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING 2-TOM, 8-SON (Oktabr) MUNDARIJA

| | | |
|---|---|-------|
| 1 | МЕТОДЫ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ОГРАНИЧЕНИЙ В РЕШЕНИИ НЕЛИНЕЙНЫХ УРАВНЕНИЙ И ИХ НЕКОТОРЫЕ ПРИЛОЖЕНИЯ Тохиров Ф.Ж. | 5-11 |
| 2 | ENHANCING PLURICULTURAL AWARENESS AND COMMUNICATIVE SKILLS VIA PROBLEM-ORIENTED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN LANGUAGE TEACHER EDUCATION Rakhmatova E'zoza Otabek qizi | 12-17 |
| 3 | CLASSIFICATION AND COMPARATIVE ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF FINELY DISPERSED FILLERS. Adilkhodzhaev A.I, Kadirov I.A, Rajabov M.Z, Umarov I.I, Tosheva D.F. | 18-22 |
| 4 | RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TA'SIRIDA AGRAR LOYIHALARNING SAMARADORLIGI Quvondiqov Shavkat Jumabek o'g'li | 23-27 |
| 5 | INSULTDAN KEYINGI REABILTATSIYADA FIZIOTERAPEVTIK REABILTATSIYA SAMARADORLIGI Saodatxon Ro'ziyeva Toxirjon qizi, Yulduz Musayeva Alpisovna | 28-29 |
| 6 | ҚАРАҚАЛПАҚСТАНДАҒЫ СОВЕТЛЕР ДИНИЙ СИЯСАТЫ Аминов Раҳматжон Искандар ўғли | 30-34 |
| 7 | TA'LIM MAZMUNI VA UNING ASOSIY KOMPONETLARI N.B.Gafurova | 35-37 |
| 8 | МАКТАБГАЧА ТА'LIM ТИЗИМИДА ЗАМОНАВИЙ БОШҚАРУВ ТАМОЙИЛЛАРИ Sh.Sh.Fozilov | 38-41 |
| 9 | YOSHLAR ORASIDA INTERNETDAN HADDAN TASHQARI FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI Sharopov Nabi Mirzaali o'g'li | 42-44 |
| | TO'PLAM | 45 |